
Hokim yordamchilariga planshetlar berildi

Rishton tumanidagi 71 ta mahallada faoliyatini olib borayotgan hokim yordamchilarining ish samaradorligini yanada oshirish maqsadida ularning har biriga zamonaviy planshetlar topshirildi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan hokim yordamchilari uchun maxsus planshetlar ajratildi. Bugun Rishton tumani hokimligida bo'lib o'tgan uchrashuvda planshetlar sektor rahbarlari tomonidan hokim yordamchilari va Respublikadan tumanga biriktirilgan vakillarga topshirilib, bundan ko'zlangan maqsad va vazifalar to'g'risida ma'lumot berildi. Qo'shimcha ravishda klaviatura bilan ham jihozlangan mazkur planshetlarda barmoq izi skaneri yordamida shaxsni tasdiqlash kabi imkoniyatlar mavjud bo'lib, hokim yordamchilariga ko'pgina vazifalarni mahalladan chiqmagan holda amalga oshirish imkonini beradi.

2022-05-16 11:37:59